

Toshkent shahar statistika boshqarmasi



2018 yilning yanvar-fevral oyida QURILISH ISHLARI

RAQAMLAR:

Qurilish-montaj ishlari hajmi - **968,5 mlrd. so'mni** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **108,4 %ni** tashkil etdi;

Yirik qurilish-pudrat tashkilotlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi – **32,0 %**


Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi – **45,6 %**

Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – **22,4 %**

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida shaharda 968,5 mlrd.so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 309,8 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 151,3 %ni tashkil qilib, o'tgan oydagi o'sish sur'atiga nisbatan 18,8 % punktga kamaydi.

Mos ravishda, kichik korxonalar va mikrofirmalar 441,7 mlrd. so'm yoki 95,9 %ni hamda norasmiy sektor 216,9 mlrd.so'm yoki 96,8 %ni tashkil etdi.





Tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi

2018 yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari umumiy
hajmida tumanlarning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)

Tumanlar	Jami	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da
Toshkent shahar	968,5	108,4
tumanlar:		
Bektemir	24,6	107,5
Mirzo Ulug'bek	132,7	104,4
Mirobod	169,8	107,7
Olmazor	65,7	108,7
Sergeli	63,9	112,2
Uchtepa	43,8	109,3
Chilonzor	130,6	109,6
Shayxontoxur	81,6	110,8
Yunusobod	93,1	109,4
Yakkasaroy	84,9	108,6
Yashnobod	77,8	107,6

Tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Mirobod tumanida bajarilgan bo'lib, shaharda bajarilgan jami qurilish ishlarining 17,5%ini tashkil etdi, Mirzo Ulug'bek tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 13,7%ni, Chilonzor tumanida 13,5%, Yunusobod tumanida 9,6% va Yakkasaroy tumanida 8,8 %ni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi (davomi)



Shaharda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Bektemir tumanida bu ko'rsatkich eng past 2,5 %ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchtepa va Sergeli tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 4,5 % va 6,6 % ni tashkil

etgan bo'lsa, Olmazor tumanida 6,8 %ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Katta hajmda amalga oshirilayotga qurilish ishlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- Chilonzor tumanida Iqtisodiyot Vazirligining rekonstruksiya qilinishi;

- Shaharda ko'priklar va temir yo'l halqasining qurilishi,

- Sergeli tumanida – turar joylar va 2-aeroportni rekonstruksiya qilish;



- Yakkasaroy tumanida - Toshkent pedagogika institutini rekonstruksiya qilish;


- Chilonzor tumanida - milliy bog'ni rekonstruksiya qilish;

- Sergeli tumani ko'p qavatli arzonlashtirilgan uy-joylarni qurilishi;


- Chilonzor tumanida "Humo" sport saroyining qurilishi.



Tumanlar bo'yicha jami qurilish ishlari hajmi, %da (davomi)



Qurilish ishlari hajmi tarkibi






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi, ya'ni 62,4%i qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Fuqarolik obyektlari qurilishi va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi ham o'tgan yilga nisbatan ko'paygan holda jamiga nisbatan 20,5%ni tashkil qildi.

2017-2018 yillarda Toshkent shahri bo'yicha qurilish ishlari hajmining sektorlari bo'yicha ulushlarining o'zgarish dinamikasi, %da



Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

Sh.Yarashov
(0371) 230-88-18